



ARTICLE INFO

Received: 08th December 2022
Accepted: 15th December 2022
Online: 17th December 2022

KEY WORDS

Undosh, o'zak, asos, tushuncha, taraqqiyot, tovush, ikki undosh, uch undosh.

Arab tilida so'zning o'zagi undosh tovushlardangina iborat bo'ladi. O'zakni tashkil etuvchi undoshlar o'zak undoshlar deyiladi. O'zak undoshlar so'zdagi umumiy ma'noni ifodalaydi. O'zak undoshlarning boshiga, oxiriga, orasiga unli tovushlar qo'shish bilan so'zlar hosil bo'ladi. Bu

Arab tilida asosdosh deyilganda asosi bir bo'lgan so'zlarga aytiladi. Arab tilida asosdosh so'zlarning ma'nosi umumiy bitta, bir-biriga yaqin bo'ladi. Jadavaldagi so'zlarni izohlaydigan bo'lsak, asosdosh so'zlar orasida ma'no yaqinligi bor.

MAKTAB - [a. المدرسة - o'qish joyi; yozuv stoli; bo'lim, idora] O'qituvchi rahbarligida yosh avlodga savod o'rgatib, uni ma'lumotli qiluvchi ta'lim-tarbiya muassasasi. Boshlang'ich maktab. Internat maktab. O'rta maktab. Maktabga kirmoq.

KITOB - [a. مراسل - yozilgan, muqovalangan asar] 1 Ma'lum matnli varaqlardan iborat,

UCH UNDOSHLI ARABCHA ASOSDOSH O'ZLASHMA SO'ZLARLARNING SEMANTIK TAHLILI

Rahmonova Zamira

Qarshi davlat universiteti

Lingvistika: o'zbek tili

2- bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7450324>

ABSTRACT

Ushbu maqolada arab tilidagi o'zak undoshlar, uch undoshli arabcha asosdosh o'zlashma so'zlarning semantik tahlili to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

so'zlarni uch undoshli, ikki undoshli, to'rt undoshli asosdosh so'zlar deb tasnif qilishimiz mumkin. Uch undoshli asosdosh so'zlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Masalan,

ى ت ب	K t b	Maktab, kitob, kotib, kitobat, maktub, kutubxona
ر ب خ	X b r	Xabar, axborot, muxbir
ل س م	M s l	Muslim, salim, musulmon

juzlab tikilgan, muqovalangan, hajmi 48 sahifadan kam bo'lmagan bosma (qadim qo'lyozma ham) asar. Kitob magazini. Kitob savdosi. Kitob nashr etmoq. She'riy kitob.

KITABA - [a. - yozuv; kotiblik; yozuvli lavha] - esk. Qabr toshi, katta darvoza va bino peshtoqiga bitilgan yoki o'yilgan yirik yozuv. Qani u xarobazor Barq urar yangi jahon, Daryolar, ekinzorlar - fusunkor kitobalar. Mirtemir.

KITOBAT - [a. - yozuv, yozish; yozuvli lavha] - esk. Yozish, ko'chirib yozish, yozuv. Keksa xattot Masharif tarro bilan



marosimni kitobat qilib o'tirgan edi. S. Siyoev, Yorug'lik.

KOTIB - [a. - (xat) yozuvchi, (kitob) ko'chiruvchi] 1 - tar. Ro'yxat tuzish, qo'lyozmalarni ko'chirish bilan shug'ullangan shaxs; mirza

KUTUBXONA - [a. - «kitob» s. ning ko'pl. + xona] 1 Kitob, jurnal va sh. k. ni to'plash, saqlash va ularni tashviqot qilish, o'quvchilarga foydalanish uchun berish bilan shug'ullanuvchi muassasa. O'zbekiston Fanlar akademiyasining kutubxonasi

MAKTUB - [a. • - yozilgan; xat, noma] 1 kt. Kimsaga, biror kishiga yozib yuborilgan xat, noma. Maktub yubormoq. Maktub yozmoq. Qushbegi yer ostidan xotinni kuzatdi-da, qo'lidagi maktubning orqa-o'ngini tekshirib qaradi. A. Qodiriy, O'tgan kunlar.

Kitob, maktab, kutubxona, kitobat so'zlarining barchasi yozuv va ilmga oid so'zlar hisoblanadi.

MUSLIM - [a. **مسلم** - islomni qabul qilgan, musulmon] 1 - kam qo'll. Musulmon dinidagi kishi; musulmon. ..islom tug'i ostiga Turkistondagi jamiki musulmlarni to'plagaymiz.

MUSULMON - [a. **مسلم**] 1 Islom dinidagi kishi. - [Qozi:] Sen bir kambag'al musulmonsan. O'z joningga jabr qilma.. deymiz. Hamza, Boy ila xizmatchi.

SALIM - [a. - sog'lom, butun, shikastlanmagan; haqiqiy, to'g'ri] 1 kt. Sog'lom odam; sog'-salomat, to'rt muchasi but kishi. Aqli (yoki fikri) salim - 1) to'liq, tiniq aql; 2) aqli raso, miyasi butun odam. Fikri salim Olimjon o'zida bo'lgan jiddiyatlarni Ahmadjonda ham ko'rmoqda edi. Hamza, Tanlangan asarlar.

Bu so'zlarda esa ruhida va aqlida sog'lomlik, iymonlilik umumiy ma'no sifatida olingan. O'zbek tilida *musulmon* va

muslim so'zlari dublet ya'ni variantdosh so'zlar hisoblanadi.

XABAR - [a. darak; axborot, ma'lumot; ovoza; kesim (tish.)] 1 Biror kimsa, narsa yoki hodisa haqidagi axborot, darak, bildirish. Muhammad Arg'unning xabariga ko'ra, dushmanning katta qo'shini Rafqondan o'tib, Konibodom sari kelayotgan edi. Mirmuhsin, Me'mor.

AXBOROT — Ish, voqeahodisalar haqida tushuncha xabar, ma'lumotlisda so'zga chiqqan parlament qo'mitalari ning raislari.. axborot berdilar. Gazetadan.

AXBOR — “xabar”ning ko'pligi] kam qo'll. Xabar; xabarlar; ma'lumot

MUXBIR - [a.- xabarchi, xabar beruvchi; ayg'oqchi] 1 Tahririyat tarkibida jurnalist sifatida xizmat qiluvchi xodim. 2 Bevosita tahririyatda ishlamaydigan, ammo ommaviy axborot vositalarida muntazam ijodiy hamkorlik qiluvchi shaxs. Majid bilan Rayhonov olmoslik muxbirning ilgarigi yozgan xabarlarini originalini ko'zdan kechirmoqchi bo'lishdi. M. Jo'ra, Noshirnoma.

Bu so'zlar xabar, ma'lumot umumiyli ostida birlashgan.

Arabcha so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelishidagi yana boshqa bir manba bu arab kitobchilik san'atining butun borlig'i bilan turkiy xalqlar, birinchi navbatda, o'zbek xalqi madaniyatiga kuchli ta'sir etishi bilan bog'liqdir. Biz bilamizki arab kitobchiligi islom dini yoyilishining dastlabki bosqichlarida muqaddas Qur'oni Karimning ko'chirib tarqalishiga bo'lgan ehtiyoj natijasida shakllandi va rivoj topdi. Bunday deyishimiz uchun ma'lum bir asoslar bor. Chunki ba'zi manbalarda yozishlaricha, islom dinining paydo bo'lishiga qadar arablar o'zlarining muayyan bir yozuvlariga ega bo'lmagan. To'g'ri, III-IV asrlarga qadar ularda oromiy



yo'zuvining arabcha variant qo'llanishda bo'lgan, lekin bu yozuv turi u qadar yoyilmaganligi sababli arab xalqi tarixi va hayotiga oid rivoyat hamda ertaklar, asosan, avloddan avlodga og'zaki rusumda yetib kelgan. Islom dinining paydo bo'lishi va uning natijasida arab xalifasining tuzlishi bilan arab xalqining madaniy, siyosiy, iqtisodiy, hayotida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, qadimda o'zbeklar yozuv qurollaridan hisoblangan siyohdonni bitigu so'zi orqali ifodalashgan Bitigu so'zining etimologiyasi ham bitig singari asli turkiy "bitmoq" feliga borib taqalishi ma'lum. Keyinchalik bitigu terminini o'rnini arabcha davot so'zi to'liq egallaydi. Ma'lum vaqdg qadar bitigu va davot terminlari parallel tarzda qo'llangan. Keyinchalik arab tili ta'sirida davot turki bitigu so'zini leksikadan siqib chiqargan. Shuningdek bitigu o'rnida arabcha yana bir termin – mihbara ham davot terminiga sinonim tarzida muomalaga kirib kelgan. Shuningdek, ayrim arabcha o'zlashmalar dastlabki o'zlashgan vaqtlarda tilimizda faol qo'llanishda bo'lgan bo'lsa, hozirgi kun nuqtayi nazaridan erishishi, ya'ni ular anglatgan tushunchalarning texnik taraqqiyot tufayli yo'q bo'lib ketishi yoki ularning o'rnini yangi terminlar egallashi natijasida ular arxaik termin sifatida iste'moldan chiqib ketgan. Masalan, kutub, "kitob" ning ko'plik shakli, ya'ni ko'plik shakli o'zagi o'zgargan holda bo'ladi.

Quyida arxaik terminlar:

manqul, naql etilgan, birovning aytganlaridan ko'chirilgan, manqut nuqta qo'yilgan, nuqtali;

marqum - yozilgan, bitilgan, raqam dud;

midod- yozuv ishida qo'llangan siyoh ;

qoralik- qurum, iplar tortib yasalgan chizg'ich;

miqroz - qog'ozgarlikda qog'oz qirqishda ishlatiladigan qaychi;

mudavvin - to'plovchi biror fanga oid ma'lumotlarni to'plab, izohlab kitob holiga keltiruvchi;

Arabcha siniq ko'pliklar o'zagidan o'zgarib hosil bo'ladi.

Xalq-bir yerda yashovchi odamlar yig'indisi.

Xoliq-"xalq" so'zining ko'pligi. Yaratuvchi ijodkor. Bu so'zlarning asosi

Xilqat-yaratilgan, bunyodga kelgan narsa yoki kimsa. Agar Xalq, Xoliq, Xilqat so'zlarini umumiy lashtirsak yaratuvchi va yaratilgan ma'nosini anglaymiz. Bu so'zlar bugungi kunda o'zbek tilida o'zlashgan bo'lib ma'no jihatidan ko'plikni anglatmaydi.

Fikr -aynan fikr-zikr.

Tafakkur-fikr yuritish, o'ylash, fikrlash.

Bu so'zlarda ham fikr qilish umumiy ma'no sifatida olingan, ammo tafakkur so'zi fikrdan ko'ra kengroq, falsafiyroq.

Kabir-katta, ulug'.

Akbar-eng katta, ulkan.

Akobir-eng kattalar. Bu so'zlarda buyuklik ma'nosi mavjud, lekin *Akobir* so'zi o'zbek tilida ko'plik ma'nosini bildirmaydi, atoqli ot hisoblanib, buyuklik nisbasidir.

Karam-marhamat, muruvvat, himmat.

Ikrom-ko'plikdagi shakl. Hurmat izzat. Bu so'zlarning genizisida hurmat ma'nosi mavjud. O'zbek tilida bu so'zlar quyidigicha ma'nolarni ifodalaydi:

KARAM II - [a. – yaxshilik, saxovat] kt.

Marhamat, muruvvat, himmat. - [Shohmurod-] Tangrining karamiga sig'inib, ularni Astrobod tomonga jo'natdim, Xudoyim lutf qilsa, biron ish qilib kelarlal.

IKROM - [a. – izzat, hurmat] 1 - kt. - kam qo'll. Hurmat, izzat. Qilgan izzat va



ikromlaringiz uchun rahmat! A. Qodiriy, O'tgan kunlar. 2 Ikrom (erkaklar ismi).

Forig'-xoli, bo'sh; egallanmagan, befoyda.

Maxfirat-"forig" so'zining ko'plikdagi shakli.

Bu so'zlarda ham ham ma'no yaqinligi bor. Ammo bugungi kunda o'zbek tilida butunlay boshqa boshqa ma'noda ishlatiladi. Forig' so'zi badiiy uslubga xos bo'lib, unumsiz ishlatiladi.

FORIG' - [a. - xoli, bo'sh; egallanmagan; befoyda]: forig' bo'lmoq - esk. kt. Biror ish-harakatdan xoli bo'lmoq, bo'shamoq, qutulmoq. Ota-onasining nazdida, Hafiza yuragidagi dardlardan forig' bo'lganday ko'rindi. Mirmuhsin, Umid. Sen shu yerda turgin, men namozdan forig' bo'layin, so'ngra gaplashamiz. «Oysuluv».

Qobil-qabul qiluvchi, har narsaga ko'nuvchi, qobiliyatli.

Iqbol-yaqinlashish. "Qobil" so'zining ko'pligi. Bugungi kunda so'zlarning ma'nosi butunlay uzoqlashgan. Iqbol so'zida ma'no jihatdan kengayish bor.

QOBIL - [a. - qabul qiluvchi, har narsaga ko'nuvchi, qobiliyatli; kelgusi] 1 Har qanday ishga qobiliyati, layoqati bo'lgan; qobiliyatli, layoqatli. Borishsa qaytarma, bolam. Ko'p qobil, o'zingga o'xshagan hunarmand o'g'lonlar-da bular. H. Nazir, Cho'l havosi.

IQBOL - [a. - peshvoz chiqish; yaqinlashish; qiziqish; baxt, omad] 1 Baxtli taqdir, porloq kelajak; baxt, om - ad. -Gulshanning iqboli baland. Juda pishiq, juda tirishqoq u, - dedi Zaynab. Oybek, O. v. shabadalar.

Talab-izlash, qidirish, so'rash.

Tolib-izlovchi talab qiluvchi.

Talaba- so'rovchilar, talab qiluvchilar.

Bu so'zlar ham asosdosh so'zlar hisoblanib, ma'no umumiyligida izlanish, o'qish semalari mavjud.

Habib-sevikli; do'st, o'rtoq.

Mahbub-sevimli; yor yoki do'st. Bu so'zlar semasida ham sevimlilik mavjud. Ular bugungi kunda uslubiy xoslangan so'zlar hisoblanib, kam ishlatiladi.

Kofir-tanimovchi, inkor etuvchi.

Kufr-dinsizlik; ko'rnamaklik.

Tanimoqlik semasi asosida birlashgan so'zlar ma'no jihatdan genizesidagi ma'nodan uzoqlashmagan.

KUFR - [a. - dinsizlik, kofirlik, islomni tanimaslik; ko'rnamaklik] 1 - din. Xudoni, dinni tahqirlash. Xudo va rasulga bo'lgan haqorat kufr va murtadlik bo'lib, kofir va murtadning jazosi qatl. emasmi S. Ayniy, Qullar. 2 Diniy, shar'iy tamoyillarga to'g'ri kelmaydigan, xudoga xush kelmaydigan, noshar'iy.

KOFIR - [a. - tanimovchi, inkor etuvchi, islom dinini tanimovchi, g'ayridin] - din. - 1 ayn. g'ayri - din. Hamma musulmonlar bab-baravar, deb o'ylaysizmi Musulmonlar o'rtasida bo'rilar yo'qmi Mayli, kofirmi, musulmonmi, biz bo'rilarning jazosini beramiz. Ular kofirda ham bor, musulmonda ham. Oybek, Tanlangan asarlar.

Xulq-fe'l-atvor, ma'nodan uzoqlashmagan.

Axloq-muomala, xatti-xarakat odobi. Fe'l-atvor semasi asosida birlashib, bugungi kunda ma'nolari boshqa boshqa so'zlar hisoblanadi.

XULQ-ATVOR - [xulq + atvor] Fe'l-atvor, xarakter. Hamida xulq-atvori shamolga o'xshagani bilan ko'p narsaga aqli yetardi. S. Anorboev, Mehr.

AXLOQ — a.1) — kishining tabiati] Muomala, xatti-harakat odobi. Aslini ol ganda, axloq — ma'naviyatning o'zagi. Gazeta dan.

Yuqoridagi misollar siniq ko'plikning paydo bo'lishidan yasalgan. Arab tilida ko'plik shakli yasalishida ham so'zlar



asosdosh bo'lishi kerak. Yuqoridagi misollardan shuni bilish mumkinki, ba'zi so'zlar bugungi kunda ma'nosi o'zgargan,

ba'zilariniki ma'nosi uzolqashmagan, ba'zilarida ma'no mavjud, faqat atoqli ot shaklda.

References:

1. Begmatov E.A. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –T.: Fan, 1985. 160 bet.
2. Eshonqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida arabcha lug'aviy o'zlashmalarning paradigmatic assimetryaga munosabati. Filol. fan. nomz... dis. avtoref. -Toshkent, 1996. 21 bet.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 3-tom. – T.: Universitet, 2003. 600 bet.
4. Rahmonov T.P. Hozirgi o'zbek tilidagi arabcha o'zlashma so'zlar semantik tuzilishidagi o'zgarishlar. filol. fan. nomz.... dis. avtoref. -Toshkent, 1994. 24 bet.
5. Hamrayeva Y. O'zbek tilining o'zlashma so'zlar o'quv izohli lug'ati. – T.: Yangi asr avlodi, 2009. 104 bet.
6. Hojiyev A. Mustaqillik sharoitida o'zbek tili lug'at tarkibining rivojlanish asoslari // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1994. -№ 1.
7. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarning izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. 164 bet.
8. Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari, -T.: Fan, 1996, 160 bet.
9. Jamolxonov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T.: O'qituvchi, 2005. 200 bet.
10. Mahmudov N. O'zbek tilida o'zlashma so'zlar: me'yor vamilliylik // O'zbek tili va adabiyoti. 2010. -№ 6.
11. Rahimov B. Dunyoda nechta til bor? Til va adabiyot ta'limi. 2011. 11-son. 15-bet.
12. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009. 204 bet.
13. To'xtayeva M., Qilichev B. "O'zbek tiliga o'zlashgan inglizcha so'zlarning izohli lug'ati" –T.: Fan, 2007. 40 bet.